O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Bandixon tumani Mustaqillik ko‘chasi. 1-uy.190300, tel.: (+99876)374-15-71, (bandixon.t @exat.uz,) doc.@sdv.uz

2022 - yil 14 - dekabr 447-8-211-Q/22 Bandixon tumani hokimligi

Tumandagi “Bandixon” mahallasi hududidan yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha qurilgan 1 ta 5 qavatli 30 xonadonli ko‘p qavatli turar joy binosini foydalanishga qabul qilish to‘g‘risidagi Davlat qabul hay’atining dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-martdagi PF-6186-sonli Farmonining ijrosini ta’minlash hamda tumandagi “Bandixon” mahallasi hududidan yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha qurilgan 1 ta 5 qavatli 30 xonadonli ko‘p qavatli turar joy binosini foydalanishga qabul qilish to‘g‘risidagi Davlat qabul hay’atining dalolatnomalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tumandagi “Bandixon” mahallasi hududidan yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha “Fayz Istiqlol Bunyodkori” MChJ tomonidan qurilgan 1 ta 5 qavatli 30 xonadonli ko‘p qavatli turar joy binosini foydalanishga qabul qilish to‘g‘risidagi Davlat qabul hay’atining dalolatnomasi tasdiqlansin.

2. Tumandagi “Bandixon” mahallasi hududidan yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha “Fayz Istiqlol Bunyodkori” MChJ kompaniyasi tomonidan qurilgan 1 ta 5 qavatli 30 xonadonli ko‘p qavatli turar joy binolari foydalanishga qabul qilinsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Qurbonmurotov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O'.Choriyev**